

SAMARQAND TILSHUNOSLIK MAKTABI VAKILLARINING LINGVISTIK QARASHLARI

*Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili
filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti sharq tillari
(arab tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi
Odilova Gulnavoz Voxidjon qizi
Ilmiy maslahatchi: Kabulova U.S*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand tilshunoshlik maktabi vakillarining o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ularning ilmiy qarashlari hamda tilshunoslikdagi yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada maktab vakillarining asosiy ilmiy yo'nalishlari, nazariy tamoyillari va o'zbek tili rivojida o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand tilshunoslik maktabi, lingvistika, fonetika, morfologiya, semantika, ilmiy meros.

Аннотация: В статье анализируется вклад представителей Самаркандской лингвистической школы в развитие узбекского языкознания, их научные взгляды и подходы к лингвистике. В статье рассматриваются основные научные направления, теоретические принципы и роль представителей школы в развитии узбекского языка.

Ключевые слова: Самаркандская лингвистическая школа, языкознание, фонетика, морфология, семантика, научное наследие.

Annotation: This article analyzes the contribution of representatives of the Samarkand linguistic school to the development of Uzbek linguistics, their scientific views and approaches to linguistics. The article covers the main scientific directions, theoretical principles and role of representatives of the school in the development of the Uzbek language.

Keywords: *Samarkand linguistic school, linguistics, phonetics, morphology, semantics, scientific heritage.*

O'zbek tilshunosligi tarixida Samarqand tilshunoslik maktabi alohida o'rin egallaydi. Bu maktab XX asrning o'rtalaridan boshlab tilshunoslikning nazariy asoslarini yaratishda, ilmiy tadqiqot metodologiyasini takomillashtirishda va o'zbek tilining ilmiy tavsifini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Samarqand tilshunoslik maktabi vakillari tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki xalq tafakkuri, milliy o'zlik va madaniyatni ifodalovchi ijtimoiy hodisa sifatida o'rganganlar¹.

Samarqand davlat universiteti qoshida faoliyat yuritgan bu ilmiy maktab XX asrning 50–60-yillarida shakllandi. Uning rivojiga professorlar va yosh olimlarning faol ilmiy izlanishlari, o'zbek tilining grammatikasi, leksikologiyasi va fonetikasi bo'yicha olib borilgan chuqur tadqiqotlar sabab bo'ldi. Maktab vakillari tilshunoslikning o'zbek milliy xususiyatlarini ochib berish, tilda tarixiy qatlamlar va zamonaviy jarayonlarni uyg'un holda o'rganish g'oyasini ilgari surganlar.²

Samarqand tilshunoslik maktabi vakillarining ilmiy yondashuvi funksional va tizimli-lisoniy tahlilga asoslangan. Ular til birliklarini nutq jarayonida voqelanishi, ularning semantik va stilistik funksiyalarini aniqlashga alohida e'tibor qaratgan. Ayniqsa, morfemika va semantika sohalaridagi tadqiqotlar o'zbek tili grammatik tizimini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.³

Bu maktab vakillari tilni faqat shakliy jihatdan emas, balki mazmuniy va kommunikativ nuqtai nazardan ham tahlil qilishni maqsad qilganlar. Ularning fikricha, tildagi har bir birlik inson tafakkuri, milliy qadriyatlar va ijtimoiy ong bilan bevosita bog'liq.

Maktab vakillari ilmiy tadqiqotlarda quyidagi tamoyillarga tayanishgan:

- tizimlilik tamoyili: tilni yaxlit tizim sifatida tahlil qilish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son farmoni.

² Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Andijon: ADCHTI, 2024.

³ Qosimov B. - Tilshunoslik asoslari. -Toshkent: Fan, 2008

- qiyosiy yondashuv: o'zbek tilini boshqa turkiy tillar bilan qiyoslab o'rganish;
- tarixiylik prinsipi: til hodisalarini ularning tarixiy taraqqiyoti asosida tushuntirish;
- funksionallik: til birliklarini nutqdagi real vazifasi asosida baholash.

Ushbu metodologik yondashuvlar keyingi o'zbek tilshunosligining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi⁴.

Bundan tashqari, Andijon davlat chet tillari institutida nashr etilgan "Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarida ham tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, xususan, o'zbek tili taraqqiyoti, dialektologiya va stilistikka masalalari muhokama qilingan. Unda Samarqand tilshunoslik maktabi olimlarining yangi qarashlari, ularning hozirgi til jarayonlariga qo'shgan hissasi ham yoritilgan.

Bunday fiklar yagona emas, U. Tursunov, G'. Abdurahmonov, J. Muxtorov, V. Egamov, F. Ishoqov, N. Rajabov, A. Fitrat, I. Yo'ldoshev va O. Sharipovlar ham o'zlarining qimmatli ma'lumotlari va mulohazalarini aytib o'tganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Samarqand tilshunoslik maktabi o'zbek tilshunosligi rivojida ilmiy maktab sifatida alohida o'rin tutadi. Uning vakillari o'zbek tili tizimini nazariy jihatdan chuqur o'rgandilar, milliy tilni rivojlantirish, uning funksional imkoniyatlarini kengaytirish va o'zbek tilini xalqaro miqyosda tanitish borasida muhim ilmiy asoslar yaratdilar. Bugungi kunda ularning ilmiy merosi tilshunoslik fanining zamonaviy yutuqlari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son farmoni.**
- 2. Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. — Andijon: ADCHTI, 2024.**
- 3. Qosimov B. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Fan, 2008.**

⁴ Qosimov B. - Tilshunoslik asoslari. - Toshkent: Fan, 2008

4. Jo‘raqulov A. O‘zbek tilshunosligining rivojlanish bosqichlari. — Samarqand, 2015.

5. Omonov M. Til va tafakkur munosabatlari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.